

SO'FI OLLOHYORNING "SABOTUL-OJIZIN" ASARIDAGI FALSAFIY-AXLOQIY VA PEDAGOGIK QARASHLAR TAHLILI VA ULARNING ZAMONAVIY TA'LIM INTEGRATSIYASI

Abdullayeva Zulfizar Oybek qizi

Urganch davlat universiteti

"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası 2-kurs tayanch doktoranti.

komilovk685@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21728039>

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli mutasavvif olim va shoir So'fi Ollohyorning o'zbek adabiyoti hamda pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan "Sabotul-ojizin" asaridagi falsafiy-axloqiy va pedagogik qarashlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotda asarning zamonaviy ta'lim tizimidagi yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, ularda aksiologik (qadriyatshunoslik) tushunchalarni rivojlantirish hamda imon, sabr, kamtarlik va odob kabi fundamental fazilatlarini tarkib toptirishdagi didaktik salohiyati ochib berilgan. Shuningdek, maqolada klassik pedagogik manbalarni umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimiga integratsiya qilishning samarali pedagogik strategiyalari metodologik nuqtai nazardan asoslangan.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: So'fi Ollohyor, "Sabotul-ojizin", pedagogik aksiologiya, axloqiy tarbiya, ma'naviy kamolot, an'anaviylik, didaktik prinsiplar, ta'lim integratsiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются философско-этические и педагогические взгляды известного ученого-суфия и поэта Суфи Аллаяра, отраженные в его произведении «Саботул-ојизин», которое занимает особое место в развитии узбекской литературы и педагогической мысли. В исследовании раскрывается дидактический потенциал произведения в формировании духовно-нравственного облика молодежи в современной системе образования, развитии у них аксиологических (ценностных) понятий, а также воспитании таких фундаментальных качеств, как вера, терпение, скромность и вежливость. Кроме того, в статье с методологической точки зрения обоснованы эффективные педагогические стратегии интеграции классических педагогических источников в систему общего среднего и высшего образования.

Kalit so'zlar / Ключевые слова / Keywords: Суфи Аллаяра, «Саботул-ојизин», педагогическая аксиология, нравственное воспитание, духовное совершенство, традиционность, дидактические принципы, интеграция образования.

Abstract. This article analyzes the philosophical, ethical, and pedagogical views of the famous Sufi scholar and poet Sufi Allahyar, as presented in his work "Sabotul-ojizin," which holds a unique place in the development of Uzbek literature and pedagogical thought. The study reveals the didactic potential of the work in shaping the spiritual and moral character of youth within the modern educational system, developing their axiological (value-oriented) concepts, and forming fundamental virtues such as faith, patience, humility, and manners. Furthermore, the article methodologically substantiates effective pedagogical strategies for integrating classical pedagogical sources into the general secondary and higher education systems.

Kalit soʻzlar / Ключевые слова / Keywords: *Sufi Allahyar, "Sabotul-ojizin", pedagogical axiology, moral education, spiritual perfection, tradition, didactic principles, educational integration.*

KIRISH (INTRODUCTION)

Insoniyat taraqqiyotining hozirgi globallashuv va shiddatli axborot asrida yosh avlod tarbiyasi, ularning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish har qanday davlat va jamiyat oldida turgan eng strategik vazifalardan biri hisoblanadi. G'arb madaniyati va uning transmilliy ta'sirlari natijasida vujudga kelayotgan ommaviy madaniyat, ma'naviy qadriyatlar inqirozi hamda yoshlar ongining chalg'ishi kabi muammolar milliy o'zlikni anglash va an'anaviy tarbiya tizimiga qayta nazar tashlashni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasida uchinchi Renessans poydevorini yaratish, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonida ajdodlarimizning boy ma'naviy va falsafiy-pedagogik merosidan unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy qadriyatlarga tayangan ta'lim tizigina bardoshli va mustahkam komil insonlarni tarbiyalashga qodir.

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va adabiyoti tarixida tasavvuf falsafasi va uning didaktik yo'nalishi o'ziga xos o'rin tutadi. Tasavvuf nafaqat diniy-falsafiy oqim, balki inson ruhiyatini poklash, uni axloqiy yuksaltirish va jamiyat uchun foydali shaxsga aylantirish tizimi bo'lib xizmat qilgan. Bu borada mashhur mutasavvif olim, mutafakkir va shoir So'fi Ollohyorning (XVII-XVIII asrlar) falsafiy-pedagogik merosi, xususan, uning turkiy tilda bitilgan o'lmas asari "Sabotul-ojizin" (Ojizlar saboti) asari asrlar davomida xalqimiz madaniy hayoti va ta'lim-tarbiya maskanlarida dasturilamal bo'lib kelgan. Asarning yozilish uslubi, undagi didaktik quvvat va she'riy ifoda shakli murakkab falsafiy tushunchalarni oddiy xalq, ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazishda beqiyos imkoniyatlar yaratadi.

Mazkur tadqiqot ishining dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish va aksiologik yondashuv asosida tashkil etish talab qilinayotgan bir davrda, "Sabotul-ojizin" asarining didaktik salohiyatini pedagogik nuqtai nazardan chuqur tahlil qilish, undagi tarbiyaviy prinsiplarni aniqlash hamda ularni zamonaviy ta'lim tizimiga tizimli integratsiya qilish strategiyalarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada asarning pedagogik-falsafiy mohiyati ochib beriladi va uni umumiy o'rta hamda oliy ta'lim tizimi o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlari taklif etiladi.

MAVZUNING O'RGANILISH DARAJA VA METODOLOGIYASI (LITERATURE REVIEW AND METHODS)

So'fi Ollohyor hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotshunos olimlar, falsafashunoslar va tilshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan. Xususan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan E.Eshonxo'jayev, B.Akramov, S.Rafiddinov kabi olimlar shoirning asarlari, ularning janriy xususiyatlari, vazni va badiiy san'atlarini tadqiq etishgan. Tasavvufiy ramzlar, tasavvuf tarixida Movarounnahr maktabining o'rni nuqtai nazaridan esa falsafa fanlari doktorlari I.Haqqulov va N.Kamilovlarning ilmiy ishlari diqqatga sazovordir. Ularning tadqiqotlarida So'fi Ollohyorning naqshbandiya tariqati rivojiga qo'shgan hissasi, imon va ma'rifat masalalarini ommalashtirishdagi xizmatlari tahlil qilingan.

Biroq, shoir merosining to'laqonli pedagogik-didaktik xususiyatlari, uning asarlaridagi qadriyatlar tizimi (pedagogik aksiologiya) hamda ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'quvchilar ongiga singdirish masalalari yaxlit tizim sifatida yetarlicha o'rganilmagan.

Ilgari klassik manbalarga faqat o'tmish obidasi sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda ulardan zamonaviy darsliklar va pedagogik jarayonlarda interaktiv vosita sifatida foydalanish metodologiyasi shakllanmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodologik asoslar: ob'ektivlik, tarixiy va mantiqiy birlik, tizimlilik, qiyosiy-pedagogik tahlil hamda aksiologik (qadriyatshunoslik) yondashuv hisoblanadi.

Aksiologik yondashuv asardagi axloqiy me'yorlarni zamonaviy shaxs shakllanishidagi fundamental qadriyatlar tizimi bilan qiyoslagan holda baholashga xizmat qildi. Shuningdek, germevistik tahlil metodi orqali asarning she'riy baytlari pedagogik kontekstda talqin qilindi va ularning didaktik yuklamalari aniqlandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA (RESULTS AND DISCUSSION)

1. "Sabotul-ojizin" asarining falsafiy-axloqiy asoslari va undagi fazilatlar tizimi

"Sabotul-ojizin" asari o'z mohiyatiga ko'ra, islom huquqi (fikh), e'tiqod asoslari (akoida) va tasavvufiy axloqni o'z ichiga olgan mukammal manzumadir. Shoir asarni turkiy tilda, an'anaviy masnaviy janrida bitgan bo'lib, bu o'sha davrda arab va fors tillarini chuqur bilmaydigan omma uchun o'zlikni va ma'rifatni anglash vositasi bo'lgan. Asarning asosiy falsafiy o'zagi insonning o'z nafsini isloh qilishi, dunyo o'tkinchiligini anglagan holda jamiyat va insonlar uchun ezgu amallar bajarishi, yaratuvchiga bo'lgan yuksak muhabbat va sadoqatdir.

Pedagogik nuqtai nazardan asarda inson axloqini yuksaltiruvchi to'rtta fundamental fazilat markaziy o'ringa qo'yiladi: iymon (ma'naviy barqarorlik), sabr (matonat va iroda), kamtarlik (kibrsizlik) va odob (ijtimoiy munosabatlar madaniyati). Shoir iymonni shunchaki quruq e'tiqod emas, balki amaliy faoliyat, insonning har bir xatti-harakatida aks etuvchi vijdon mezonini deb biladi. Sabr fazilati esa yoshlar xarakteridagi shoshqaloqlik, yengiltaklik va qiyinchiliklar oldida taslim bo'lish kabi salbiy illatlarga qarshi immunitet vazifasini o'taydi:

Xudovando, sanga qildim tazarru',

Eshiting nolami, ey fardi bejo'.

Manga toat yo'lida ber sabotni,

O'zing o'ngla bu dunyo-vu mamotni.

Ushbu baytlarda muallif insonga nafaqat oxirat amallari, balki tiriklik dunyosidagi (dunyo-vu mamotni) muvozanat va sabr-matonat kerakligini ta'kidlamoqda. Pedagogik nuqtai nazardan sabr – maqsadga erishish yo'lidagi qat'iyatlilikni shakllantiruvchi eng muhim didaktik omildir.

Kamtarlik va xokisorlik So'fi Ollohyor pedagogikasining go'zal namunasidir. U kibri inson qalbini kuydiruvchi va uni jamiyatdan ajratuvchi eng dahshatli illat deb hisoblaydi. Muallif yoshlarga murojaat qilib, o'zini boshqalardan ustun qo'ymaslikni, har qanday yutuqqa erishganda ham o'z ildizlarini unutmaslikni uqtiradi:

Kishi kim kibr qildi – bo'ldi rasvo,

Kibr qildi Azozil, bo'ldi a'do.

Tavoze' pesha qil, ey odamizod,

Tavoze'din bo'lur har ikki dil shod.

Odamizodning tavoze' (kamtarlik) pesha qilishi jamiyatda o'zaro hamjihatlik, mehr-oqibat muhitini yaratadi. Ushbu g'oya zamonaviy ta'lim falsafasidagi injlyuzivlik, o'zgalar fikrini hurmat qilish va tolerantlik tamoyillariga to'liq hamohangdir.

2. Asarning pedagogik aksiologiya va didaktik prinsiplari

Pedagogik aksiologiya – ta'lim va tarbiyaning qadriyatli jihatlarini o'rganuvchi soha bo'lib, u sub'ekt (o'quvchi) ongida qadriyatlar iyerarxiyasini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. “Sabotul-ojizin” asari o'zida axloqiy qadriyatlarning mukammal tizimini namoyon etadi.

Unda qadriyatlar quyidagi zanjir asosida tizimlashtiriladi: Shaxsiy qadriyat (nafs pokligi, halollik) -> Ijtimoiy qadriyat (ustozga hurmat, ota-onaga itoat, el-yurtga xizmat) ->

Umuminsoniy qadriyat (rahmdillik, adolat, sahovat). Shoir bu qadriyatlarni o'quvchiga yetkazishda bir nechta didaktik prinsiplardan unumli foydalangan:

1. Onglilik va faollik prinsipi. So'fi Ollohyor har bir axloqiy amal ko'r-ko'rona emas, balki chuqur ilm va anglash asosida bajarilishi kerakligini aytadi. “Ilmsiz amal – mevasiz daraxt” degan hikmat uning butun ijodiga singib ketgan. Bu esa zamonaviy ta'limdagi tanqidiy fikrlash va mustaqil xulosa chiqarish kompetensiyasiga mos keladi.

2. Ko'rgazmalilik va hayotiylik prinsipi. Murakkab falsafiy yoki diniy qoidalarni tushuntirishda muallif turli hayotiy qissalar, rivoyatlar va o'xshatishlardan (metaforalardan) keng foydalanadi. Masalan, yomon xulqli insonni zaharli ilonga, yaxshi xulqli insonni esa atirgulga o'xshatish orqali o'quvchida vizual va hissiy tasavvurlar uyg'otadi.

3. Nazariya va amaliyot birligi. Shoir so'z va amalning bir bo'lishini qattiq talab qiladi.

Agar inson juda ko'p ilm bilsa-yu, lekin unga amal qilmasa, uning jamiyatga foydasi yo'qligini, aksincha zarari borligini aytadi. Bu prinsip bugungi kunda ta'lim tizimidagi amaliy yo'naltirilganlik (praktika-orientirovannost) talabi bilan uzviy bog'liqdir.

3. Klassik merosni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish strategiyalari

So'fi Ollohyorning “Sabotul-ojizin” asaridagi g'oyalardan bugungi ta'lim tizimida shunchaki o'tmish asari sifatida emas, balki jonli metodik vosita sifatida foydalanish uchun quyidagi samarali pedagogik strategiyalarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

A) Kurikulum va fanlar mazmuniga integratsiya (Inkorporatsiya). Umumiy o'rta ta'lim maktablarining “Odobnoma”, “Tarbiya”, “O'zbek adabiyoti” hamda oliy ta'lim muassasalarining “Pedagogika tarixi”, “Falsafa”, “Ma'naviyatshunoslik” fanlari o'quv dasturlariga “Sabotul-ojizin” asaridan maxsus mavzular va boblarni kiritish lozim. Bunda asarning faqat diniy emas, balki sof insonparvarlik, ijtimoiy-axloqiy yo'nalishlariga urg'u beriladi.

B) Zamonaviy interaktiv metodlarni qo'llash. Dars jarayonlarida “Keys-stadi” (Case study) metodidan foydalanib, asardagi muayyan rivoyat yoki bayt asosida muammoli vaziyat yaratish va talabalarni uni tahlil qilishga yo'naltirish mumkin. Masalan, “Kibr tufayli rasvo bo'lgan inson taqdiri” mavzusida keyslar tayyorlanib, talabalarda kibrning ijtimoiy oqibatlarini muhokama qilinadi. Shuningdek, “Klaster”, “Bumerang” va “FSMU” (Fikr, Sabab, Misol, Umumlashtirish) texnologiyalari yordamida “Sabotul-ojizin”dagi didaktik g'oyalar talabalar tomonidan bugungi kun muammolari bilan bog'langan holda tahlil qilinadi.

V) Raqamli platformalar va kontent yaratish integratsiyasi. Hozirgi raqamli avlod (Z-avlod) vizual ma'lumotlarni tezroq qabul qiladi. Shu bois, asardagi hikmatli so'zlar, odob va axloqqa doir baytlar asosida infografikalar, qisqa animatsion roliklar (2D va 3D formatda) hamda audiokitoblar yaratish, ularni ta'lim platformalariga (masalan, Kundalik.com, Edu.uz) joylashtirish lozim. Bu yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardagi ma'naviy bo'shligini sifatli milliy kontent bilan to'ldirishga xizmat qiladi.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, So'fi Ollohyorning “Sabotul-ojizin” asari shunchaki adabiy-tasavvufiy meros emas, balki yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda, ularda aksiologik qadriyatlarni tarkib toptirishda bitmas-tuganmas didaktik manbadir.

Asarda ilgari surilgan iymon, sabr, kamtarlik, sahovat, ustoz va ota-onaga hurmat kabi fazilatlar bugungi globallashuv davrida milliy o'zlikni saqlab qolish va yoshlarni yot g'oyalardan himoya qilishda muhim qalqon vazifasini o'taydi.

Tadqiqot natijasida aniqlangan didaktik prinsiplar va taklif etilgan integratsiya strategiyalari (kurikulumlarni boyitish, keys-stadi metodlari, raqamli kontent yaratish) klassik pedagogik merosimizni zamonaviy ta'lim mazmuni bilan sintez qilishga imkon beradi. Ushbu strategiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi umumiy o'rta va oliy ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, intellektual va axloqiy yetuk komil insonlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. So'fi Ollohyor. Sabotul-ojizin. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 128 b.
2. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: Mavorounnahr – O'zbekiston, 2009. – 360 b.
3. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. – 184 b.
4. Rafiddinov S. Tasavvuf va badiiy ijod. – Toshkent: Adolat, 2011. – 210 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston ma'naviy taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. PF-60-son. 2022-yil 28-yanvar.